

**ZARDUSHTIYLIK: AQIDAVIY ASOSLARI VA MAROSIMLARI**

Avazova Dilrabo Axrorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Chet tillari fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Pulatova Nigoraxon Raximjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zardushtiylik dini tarixiy va diniy nuqtayi nazardan yoritilgan. Unda dinning asoschisi Zardusht, asosiy aqidaviy tamoyillari, diniy marosimlari va muqaddas kitobi — “Avesto” haqida ma'lumotlar berilgan. Avestoning tuzilishi, undagi asosiy bo'limlar va ular orqali ifodalangan diniy-falsafiy g'oyalar tahlil qilingan. Maqola Zardushtiylikning qadimiy diniy tizim sifatida bugungi dinshunoslik fanida tutgan o'rnini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Ahura Mazda, Avesto, Gatlar, Zardusht, olov marosimi, Navjot, Dahma, ezgulik, qadimiy dinlar, diniy marosimlar, Zardushtiy aqidalar.

Abstract: This article examines the Zoroastrian religion from a historical and religious perspective. It provides extensive and scientific information about the founder of the religion, Zoroaster, its main doctrinal principles, religious rituals, and its holy book, the Avesta. The structure of the Avesta, its main sections, and the religious and philosophical ideas expressed through them are analyzed. The article aims to shed light on the place of Zoroastrianism as an ancient religious system in today's religious studies.

Keywords: Zoroastrianism, Ahura Mazda, Avesta, Gathas, Zoroastrianism, fire ritual, Navjot, Dakhma, goodness, ancient religions, religious rituals, Zoroastrian beliefs.

Аннотация: В данной статье рассматривается зороастрийская религия с исторической и религиозной точки зрения. В книге содержится обширная научная информация об основателе религии Зороастре, ее основных



доктринальных принципах, религиозных ритуалах и священной книге Авеста. Анализируется структура Авесты, ее основные разделы, а также выраженные в них религиозно-философские идеи. Цель статьи — пролить свет на место зороастризма как древней религиозной системы в современном религиоведении.

Ключевые слова: *Зороастризм, Ахура Мазда, Авеста, Гаты, зороастризм, огненная церемония, Навдждот, Дахма, добро, древние религии, религиозные ритуалы, зороастрийские верования.*

Zardushtiylik insoniyat tarixidagi eng qadimiy monoteistik dinlardan biri hisoblanadi. U eramizdan avvalgi II–I ming yilliklar oraligʻida Erondagi qadimgi Oʻrta Osiyo hududida paydo boʻlgan boʻlib, uning asoschisi faylasuf va paygʻambar Zaratushtra (Zardusht) deb eʼtirof etiladi. Bu din gʻoyaviy asoslari, eʼtiqodiy tizimi va marosimlari jihatidan dunyo dinlari taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Zardushtiylikning asosiy manbai va mukammal diniy kitobi – “Avesto” sanaladi. Zardushtiylikning markazida Ahura Mazda (donolik egasi, Ezgu Xudo)ga boʻlgan eʼtiqod turadi. U butun mavjudotning yaratuvchisi, adolat va ezgulik manbai sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash tushunchasi bu dinning markaziy falsafasini tashkil qiladi. Ezgulik kuchi — Mitra va yovuzlik kuchi — Angra Mainyu (yoki Ahriman) oʻrtasidagi ziddiyat abadiy emas, vaqtinchalikdir. Zardushtiylikda inson — bu ikki kuch oʻrtasidagi tanlov qiluvchi ongli mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Zardushtiylikda amal qilinadigan uch asosiy tamoyil bor: ezgu oʻylar, ezgu soʻzlar, ezgu amallar. Bu prinsiplar nafaqat diniy, balki axloqiy va ijtimoiy hayotning ham bosh mezoni boʻlib xizmat qiladi.

Avesto - zardushtiylikning muqaddas kitobi. Zardushtiylikda muqaddas kitob sifatida “Avesto” eʼtirof etiladi. Bu asar qadimiy fors tiliga yaqin boʻlgan avesta tilida yozilgan. Avesto oʻz tarkibida diniy aqidalar, axloqiy koʻrsatmalar, huquqiy normalar, ilohiy marosimlar, duo va madhiyalarni jamlagan. Avestoning asosiy qismlari quyidagilardan iborat:



1. Yasna – eng muhim qism bo‘lib, diniy marosimlar va ibodatlarda o‘qiladigan suralar, ayniqsa Zardushtning shaxsiy da’vatlarini ifodalovchi Gatlar ham shu qismda jamlangan.

2. Visparad – Yasna kitobini to‘ldiruvchi diniy marosimlarning tavsifi.

3. Vendidad – diniy qonun-qoidalar, najosatdan tozalanish, jinoyat va jazo masalalarini qamrab olgan.

4. Yashtlar – Ahura Mazda, Amshaspandlar (farishtalar) va boshqa ilohiy kuchlarga bag‘ishlangan madhiyalar.

5. Xorda Avesto – kundalik ibodatlar, duo, bayramlar haqida qisqargan ibodatlar to‘plami.

Avesto nafaqat diniy asar, balki qadimgi eroniy xalqning dunyoqarashi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida boy ma’lumotlar manbaidir. U bugungi dinshunoslik, tarix, falsafa va tilshunoslik fanlari uchun bebaho manba hisoblanadi.

Zardushtiylik marosimlari. Zardushtiylikda diniy marosimlar tozalikka asoslanadi. Ular ichki va tashqi poklikni uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan: Ibodat (Gohlar): kuniga besh mahal ibodat qilish tartibi mavjud. Olovga sig‘inish: olov — ilohiy nur va tozalik ramzi. Har bir ibodatxona (Ateshkade)da muqaddas olov doimiy yonib turadi. Navjot marosimi: bolani diniy jamoaga kiritish marosimi bo‘lib, unga sudre (oq libos) va kusti (muqaddas belbog‘) topshiriladi. Dahma (jasad minorasi): Zardushtiylar jasadni yer, suv yoki olovga tegizmay, tabiatga zarar yetkazmaslik uchun maxsus baland minoralarga qo‘yib, tabiiy yo‘qolishga topshirishadi.

Zardushtiylar o'zlarining ehtiromli ma'budlariga e'tiqod qilishgan.Ahuramazda zardushtiylarning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblangan.Mitra-Quyosh va yorug'lik ma'budidir.O'tli chaqmoqlar yordamida u yovuzlik va o'lim ma'budi bo'lmish Ahriman bilan jang qiladi.Zardushtiylar yomg'irdan keyin hosil bo'ladigan kamalakka Mitraning o'q uzayotgan yoyi deb sig'inishgan.Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ma'budasi hisoblangan.Zardushtiylik dini ta'limoti insoniyatning ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari takomiliga katta ta'sir ko'rsatdi.

Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud.Ular Hindistonning Mumbai(Bombey,G'ujarot,shtatlarida 115ming kishiga yaqin),



Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Avstraliya va Eronning (Tehranda 19ming kishidan ortiq) ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida zardushtiylik diniga e'tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Undan tashqari Mumbayda homiy Dxalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960-yilda zardushtiylarning birinchi umumjahon kongressi Tehronda o'tkazildi. Keyingi kongresslar Bombeyda o'tkazildi.

Zardushtiylik ezgulik, adolat, insoniylik va ongli tanlov g'oyalari asosiga qurilgan qadimiy yakkaxudolik dini sifatida insoniyat madaniyatida muhim o'rin tutadi. Bu dinning asosiy manbai bo'lgan "Avesto" esa diniy-falsafiy tafakkurning yuksak namunasidir. Undagi g'oyalar bugungi kunda ham axloqiy, ekologik va insonparvarlik tamoyillari bilan dolzarbligini saqlab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avesto. Qadimgi fors yozuvlaridan tarjima. — Toshkent: Gafur G'ulom nomidagi nashriyot, 2001.
2. A. Asqarov. Zardushtiylik falsafasi va uni o'rganish tarixidan. – Samarqand: Ma'naviyat, 2019.
3. A. Mo'minov, X. Yo'ldoshxojayev, D. Rahimjonov. 'Dinshunoslik' Toshkent. 'Mehnat', 2004
4. Mary Boyce. Zoroastrianism: Its Antiquity and Constant Vigour. – London: Oxford University Press, 1979.
5. Shodiev, K. Dinshunoslik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
6. G'aniyev, B. Dinlar tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
7. Duchesne-Guillemin, J. Zoroaster and Ahura Mazda. – Paris: UNESCO, 1962.